

“MA’SUMA” ROMANIDA TARIXIY HAQIQATNING AKS ETISHI

Gulsevar Botirova

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Mustaqillikka erishgandan so‘ng har bir sohada biz o‘z erkinliklarimizga ega bo‘ldik. Rossiya istilosi davrida biz o‘z tariximiz, ajdodlarimiz haqida gapira olmas edik. Bu yo‘lga kirganlar “xalq dushmani” degan tamg‘a orttirib olishar edi. Istiqlolga erishganimizdan so‘ng esa tarixiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi. Bularga misol qilib Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanini keltirishimiz mumkin. Olim Umarali Normatov quyidagicha fikr bildirgan: “Istiqlol kunlariga kelib, chin yodkorlar ko‘nglida el-yurt uchun nimaniki dard bo‘lsa, barini to‘kib solish imkoni paydo bo‘ldi”. Isajon Sultonning qalamiga mansub “Ma’suma” romani o‘zbek xalqining eng og‘ir yillari – qatag‘on yillari haqida yozilgan. Unda endigina o‘zbek millati orasida ommaviy madaniyat, teatr tomoshalari rivojlanayotgan davr, o‘sha davrdagi istilochilik harakatlari haqida so‘z yuritgan. Hukumat tamonidan e’tirof etilgan “ozodlik”, “hur fikrlash”, “teng huquqlilik”, “oshkoralik” kabi tushunchalar shunchaki bir gap bo‘lgan.

Shu o‘rinda yozuvchi ijodiga ham nazar tashlasak. Isajon Sulton 1967-yil 6-aprel kuni Farg‘ona viloyatining Rishton tumani, Avazboy qishlog‘ida dunyoga keladi. Bo‘lajak yozuvchi o‘rta maktabni a‘lo baholarga bitirgach, 1990-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning “Munojat” nomli birinchi qissasi ham shu yili nashir etilgan. U 1996-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga qabul qilingan. Adib “Boqiy darbadarlar”, “Ozod”, “Genetik”, “Bilgi hoqon” romanlari, “Munojat”, “Onaizorim”, “Robiya Balxiy” kabi qissalar va turli mavzudagi hikoyalar muallifi. Yozuvchining asarlari ingliz, turk, nemis, rus tillariga tarjima qilingan. Shuningdek, yozivchi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi (1996), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (2010), Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti Atamalar komissiyasi a‘zosi ham hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, Isajon Sulton nafaqat yozuvchi, balki davlat siyosatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxs ham hisoblanadi.

Turkiston birligi g‘oyasi unda istiqomat qilib kelgan xalqning azaliy orzusi bo‘lgan XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududi tarkibida uch davlat birlashmasi tuzilgan. Rossiya O‘rta Osiyoni zabt etgandan keyin mustamlaka qilingan Turkiston general gubernatorligi va qo‘shib olingan mustaqi, ammo qaram bo‘lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O‘sha davrda hukumatning eng oliy maqsadi aholini ruslashtirish bo‘lgan. Shu munosabat bilan turli xil chora- tadbirlar ishlab chiqarilgan edi. Misol uchun Rossiyaning tub aholisini yurtimizga ko‘chirib kelgan. Albatta, bu davrda ham ozodlik uchun kurashlar bo‘lib turgan. Bulardan eng ko‘zga ko‘rinadigani Jadidchilik harakatidir. Dastlab jadidlar xalqqa ta’lim berish uchun faoliyat boshlaganlar. Keyinchalik esa ularning ishlari siyosiy tus olidi. Ya’ni, o‘lkamizga mustaqillik g‘oyalari olib kirdi. Yangi usul maktablari ochdi, yoshlarni chet ellarga o‘qitishga yubordi, gazeta va jurnalllar chop

etildi, ma'rifiy jamiyatlar tuzildi. Bularning barchasi xalqni ma'rifatli qilish va shu orqali mustaqillikka erishish bo'lgan. Isajon Sultonning "Ma'suma" romani ham aynan shu davr voqealarini yoritib beradi. Unda eng ziyoli oilalardan biri bo'lmish Abduvohid Qoriyevning oliasi, uning va farzandlarining ayanchli taqdiri haqida so'z borgan. Yozuvchi bu oilani e'tiqodli, imonli, diniy barkamol, halol, to'g'ri so'z qilib tasvirlagan. Abduvohid Qori mashhur ulamo, o'z davrining "qadimchi"si bo'lishiga qaramasdan, o'g'illari Bositxon va Boisxonlarni "yangicha" ziyoli etib tarbiyalaydi, davlat organlarida ishlariga ruxsat beradi.

"...Shu sababli, yangi ishingizga bir shart bilan: xalqqa ma'rifat tarqatish, ilimga oshno etish, el-ulus va raiyatga sidqidildan xizmat qilish sharti bilan ruxsat beraman. Biling, bundan buyog'iga xalq tamomila mazlumdir. Mazlumning duosi esa doimo mustajob. Yana bilingki, bu nainki bir shart, balki padaringizning sizga vasiyati hamdir. Bu oilaning do'stlari ham XX asrda o'chmas iz qoldirgan mashhur shaxslardir. Yozuvchi ularni uch guruhga bo'ladi va asarga kiritadi. Yana Abduvohid Qori kelini Ma'sumaga ham teatrga ishga kirishga ruxsat beradi. Bundan ko'rinadiki, u zamon bilan hamnafas holda yashagan. Asarda Abduvohid Qori bilan jadidchilik otasi Behbudiyning yaqinligi keltiriladi. Ular birgalikda yurt mustaqilligi uchun kurashganlar. Bir necha marta chet mamlakatlarga borib, u yerda ancha ko'rgiliklarni boshidan kechiradi. "Sho'roiy islomiya", "Sho'roiy ulomo", "Ittifoq ul muslimin" tashkilotlarini tuzishda bosh bo'lgan bo'lsa ajab emas. Toshkent va Sirdaryo musulmonlari ishtirokida bizlar qurgan "Jamiyati islomiya" jamiyatimiz musulmonlari nomidan hukumat idoralariga Mushafiy sharifni Turkistonga qaytarish to'g'risida murojaat yubordi. Ushbu murojaatni gazeta jurnallarning ko'pchiligi qo'llab-quvvatladilar. Shuningdek, Turkistondagi qadimiy asoriatiqalar ishi bo'yicha tuzilgan qo'mita o'zing o'sha yildagi qaroriga asosan, Sho'ro hukumatiga Mushafni Turkiston jumhuriyatiga qaytarish to'g'risida talabnoma topshirdi. Shundan so'ng Mushafni Usmonni Turkistonga qaytarish to'g'risida Oliy yig'inning qarori chiqdi...". Sovet bosqiniga qarshi kurashish jarayoni – qo'rboshilik harakati deb nom olgan, ularni hukumat "bosmachilar" deb atashgan. Asarda ana shu bobolarimiz: Shermuhammadbek, Madaminbek, Xolxo'ja eshon kabilar tilga olinishi asar qiymatini yanada oshirish uchun xizmat qilgan.

Asardagi asosiy voqealar o'zbek teatrining paydo bolishi, rivojlanishi haqidadir. Asarda o'zbek teatrining asoschisi Abror Xidoyatov va shu teatrga umrini baxshida etgan Yetim Bobojon, Aziz Sobirov kabi aktyorlar tilga olinadi. Ma'suma Qoziyeva ilk marta "Xalima" spektaklida ro'l ijro etadi. Bu soha asarlaridan asosiy maqsad, xalqni fikrini bilish, xulosa chiqarish bo'lgan. Sovet tuzumining qatog'on siyosati tufayli ko'plab ziyolilar qamaladi. Bu jarayon Qoriyevlar oilasini ham chetlab o'tmadi. Ularning olia a'zolari "Xalq dushmani" degan tuhmatga qoladi. Abduvohid Qorining o'g'illari birin ketin qamoqqa olinadi. Keyin Ma'suma Qoriyevani tetrdagi faoliyatiga ham to'siqlar qo'yiladi. U kun ko'rish uchun xo'jalik ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Siyosat tufayli jadidlar tamonidan yozilgan asarlar teatr sahnalaridan olib tashlanadi. Ba'zi asarlar nomi o'zgartiriladi. Masalan: "Boy ila Batrak" "Boy ila xizmatchi"ga o'zgartiriladi. Ma'suma

Qoriyevaning eri ham, qaynotasi ham o'ldiriladi. Qaynog'asi esa surgun qilinadi. Ikkinchi jahon urushi davrida o'z ixtiyori bilan frontga ketsa, oila a'zolari nomi oqlanishi va'da qilinadi. Ma'suma o'g'illarini urushga jo'natadi. Ulardan faqatgina "Qizil yulduz" va "Qizil bayroq" ordenlari keladi. Ammo ular maqsadiga erishdi. Oilasi nomi oqlandi. "... – Bositxon Qoriyev! Botirxon Qoriyev! Shavkatxon Qoriyev! Ma'suma Qoriyeva! So'ngi manzilingizda tinch orom oling!".

Isajon Sultonning Ma'suma asari roman janirida yozilgan. Badiiy asar tuzilishiga keladigan bo'lsak, asar to'g'ri ekspozitsiya orqali yozilgan. Ya'ni asar boshidan bahor tasviri Ma'sumaning uyi odamlar tasvirlanyapdi. O'sha munis og'achaning gaplaridan to Ma'suma tomoshaga borib, Bositxon uni ko'rib qolishigacha asar ekspozitsiyasi hisoblanadi. Ma'sumaning uzatilib yangi muhitga tushib qolishi bilan asar tuguni boshlanadi. Bu olila boshqalardan ancha farq qilar edi. Ularning uylarida doimo mehmon bo'lgan. Qaynotasi Abduvohid Qori jadidchilar bilan birga kechalar tashkil etar edi. Boisxon ham ba'zn do'stlarini uyiga taklif etardi. Asar Boisxonning hukumatning maorif vazirligiga ishga kirishi bilan davom etdi. Ma'suma teatrga ishga kiradi. "Turon" degan yangi guruh tuzadi. Ular teatrdagi dramalar o'ynab, xalqni ilim olishga, xalq mustaqilligi uchun kurashishga chorlaydi. Ma'suma birinchi o'zbek aktrissasi sifatida tarixga kirgan. O'sha davrda "Paranji tashlash" siyosati amalga oshayotgan edi. Ba'zi eski zamon ayollariga bu hol noma'qul tuyilgan. Hammasi yaxshi ketayotganda qaynonasi kasal bo'lib uzoq yotdi va oxiri olamdan o'tdi. Balki uning o'limi keying baxtsizliklardan ogohlantirish bo'lgandir.

Asar kulminatsiyasi Abduvohid Qorining Ufaga ketib, uzoq qolib ketganidan boshlanadi. Bir guruh ziyolilar "Jamiyati Islom" tuzilmasini tashkil etdilar. Ma'suma teatrdagi "Momoqaldiraq", "Layli va Majnun" asarlarida bosh ro'llarda ishtirok etadi. Keyin u Tamaraxonim bilan Moskvaga borib keladi. Toshkentga qaytishlari bilan qiyinchiliklar boshlanadi. Hamza, Cho'lpon va yana bir qancha jadidlarimiz o'ldiriladi. Ulardan keyin Boyizxon qamoqqa olinib surgun qilinadi. So'ngra Abduvohid Qori bilan Bositxon "Xalq dushmani" deb ayiblanadi va o'ldiriladi. Eng og'r kunlar boshlanadi. Ma'sumani teatrdagi ishlashga qo'yishmaydi. Teatrdagi ba'zi asarlar ya'ni jadidlar asarlari taqiqlanadi. Keyin o'g'illarini o'z xohishi bilan urushga jo'natadi. Ular oilasi nomini oqlaydi. Bu asar qahramonlari prototip usulda yaratilgan. Ya'ni asardagi voqealar uydurma emas. Mazmun va shakil jihatdan ham yozuvchi o'z mahoratini ko'rsatgan. Roman muallif tilidan hikoya qilingan. Asarda, shuningdek, oilaviy munosabatlar ham yorqin aks etgan. O'zaro hurmat, sadoqat tushunchalari yuqori o'rinda turadi.

"... – Nega bunchalar ishomayapsan?, deb so'radi Ma'suma undan
– Chunki sevadilar
– Sen-chi?
– Men ham!

Ma'suma jilmayib qo'yib ishga tutindi".

Qaynonasi o'lim to'shagida qilgan vasiyatidan ham ularning oilasini bilib olish mumkin. " – Eringizni payg'ambardek ko'ring, so'zlarini oyat yodlagandek yodlab oling,

sizni bor qiladigan ham, yo'q qiladigan ham shu bo'ladi deb nasihat qilgan edilar. Mana mrni bor qilyapsiz."

Birinchi o'zbek aktirisasi Ma'suma Qoriyeva o'zing mahorati bilan barchaning yodida qoladi. U asarlarni berilib ijro etganki, hattoki o'zini unitib qo'ygan. U turli xil tazyiqlarga qaramasdan oilasiga sadoqat bilan oxirigacha kurashdi. Biz bu asar orqali jadidlarimizni qanday ishlar qilganini bilib olamiz. Ular turli xil tashkilotlar tuzishdi. Asarlari orqali xalqni ma'rifatga chorladi. Albatta bu SSSR hukumatiga yoqmagan. Bo'htonlar bilan ko'p adiblarimiz, Qodiriy, Cho'lpon, Hamza, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov va boshqalarni yoq qilib yubordi. Ular yozgan asarlarni o'qish ta'qiqlandi. Oilasi bilan muloqat qilganlar ham xalq dushmani deb jazolandi. "Ma'suma" romanida milliy istiqlolchilik harakati a'zolari haqida "bosmachi" deb atalgan ajdodlarimizni taqdiri yoritilgan.

Romanda nafaqat teatrni shakillanishi, qatag'on siyosani, bir oilaning ayanchli taqdiri o'laroq yaqinlaridan, jigarbandlaridan ayrilgan onaning iztirobi ham yorqin aks etgan. So'ngi yillarda jadidlarimiz nomini tiklash uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Turli xil konkurslar tashkil qilinib, yoshlarni tariximizdan xabardor qilishga intilmoqda. Biz yoshlar bobolarimiz orzu qilgan bu mustaqil davlatni ko'z qorachig'imizday asrab-avaylashimiz, ular qilgan ishlarni o'rganib xulosalar chiqarishimiz lozim. Zero, tarixni bilmay turib kelajakni qurib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normatov U. XX asr manzaralari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
3. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. –T.: Yozuvchi, 2000.
4. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi 1999.